

ЎZBEKISTONDA INFLATSIYA JARAYONI VA OYLIK MAOSHNING KЎTARILISHI HAMDA
ULAR ŐRTASIDAGI BOĖLIQLIKLAR.

Shoydulova Maftuna Zafar qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Tadbirkorlik va boshqaruv fakulteti 1i22-guruh talabasi

Xurramov Daim Juma Őgli

Tadbirkorlik va boshqaruv fakulteti 1i22-guruh talabasi

Bōriyev Muhiddin

Tadbirkorlik va boshqaruv fakulteti 1i22-guruh talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Őzbekistondagi sezilar sezilmas sodir bōlayotgan inflatsiya jarayoni hamda oylik va narxlarning ōsishini bir biriga tōĖri proporsianalliklari tōĖrisida fikr va mulohazalar yuritilindi. Undan tashqari Őzbekistonda kichik biznes rivojlanishiga tōsiq bōlayotgan voqea va hodisalar haqida ham gaplashamiz.

Kalit sōzlar: Oylik, vaqtbay, ishbay, kichik biznes, YATT, soliq, xususiy mulk, bank, kredit, kalkultatsiya, inflatsiya, stagflatsiya, biznes, mehnat, vaqt, akkord ish haqi.

Inflatsiya (lot. infl atio — shishish, bo'rtish, ko'tarilish), pulning qadrsizlanishi — tovar-pul muvozanatining buzilishi natijasida muomalada xo'jalik aylanmasi ehtiyojlaridan ortiq darajada qog'oz pullar miqdorining ko'payib ketishi, pul massasining tovarlar massasidan ustunligi natijasida tovar bilan ta'minlanmagan pullarning paydo bo'lishi. I. birinchi galda sifati yaxshilanmagan holda tovarlar va xizmatlar narxining ko'tarilishi ko'rinishida, shuningdek, oltin va chet el valyutasining milliy valyutaga nisbatan qimmatlashishi shaklida yuz beradi. Tovar ishlab chiqarishning to'lov qobiliyatiga ega talab o'sishidan ortda qolishi, bozorda talabga javob bermaydigan tovarlarning ko'payib ketishi, byudjet kamomadlarini qoplash uchun qo'shimcha pul emissiyasi, investitsiyalarnm emissiya hisobidan moliyalashtirish, monopol narxning mavjudligi, narxni oshib keti-shidan hadiksirab tovarlarni keragidan ortiq harid etish, mamlakatga qadrsizlangan chet el valyutasining ko'plab kirib kelishi va boshqa omillar I.ni yuzaga keltiradi. I. jarayoni narxlarning o'sishi, yalpi talabning yalpi taklifdan oshib ketishi, makroiqtisodiy beqarorlik natijasidir. "I." termini dastlab 1861—1865-yillarda Shimoliy Amerikada, so'ngra Fransiya va Germaniyada qo'llanilgan. Tovar-pul muvozanatiga ko'ra, pul massasi (M) pul miqdori (t)ning pul oboroti tezligi (V)ra ko'paytmasi bo'lib, bu tovar massasi (T)ga, ya'ni bir tovar narxining (R) tovarlar miqdori (Q)ra ko'paytmasiga teng bo'lishi kerak. Bunda $M=T$ yoki $mV=PQ$ tengligi hosil bo'ladi. Agar pul ko'payib ketsa $M>T$, ya'ni pulning bir qismi ortiqcha bo'ladi. Agar pul miqdori o'zgarmaganda tovar miqdori qisqarib ketsa $T<M$ paydo bo'ladi. Har ikki holda ham ortiqcha pul narxlarning o'sishini keltirib chiqaradi, chunki narx tovar birligiga beriladigan pul miqdoridir. I. bu faqat pul bilan bog'liq hodisa emas, balki iqtisodiyot yuksalganda qisqaradigan, tushkunlik paytida kuchayadigan iqtisodiy holat mahsuli. Oltin va

kumush muomalada bo'lgan sharoitlarda I. yuz bermaydi, chunki ular boylik belgisi emas, balki real boylikdir. Pullarning zarur miqdori uning xazinalik vazifasi orqali boshqarib turiladi. Agar tangalar harid uchun zarur bo'lganidan ortiq bo'lsa, ortiqcha pul xazina sifatida to'planadi va bunda ular qadrsizlanmaydi. Bozorda tovarlar ko'payib pulga ehtiyoj bo'lganda ular jamg'armadan olinib yana savdo muomalalarida qatnashadi. Qog'oz pullar real boylik emas, balki uning ramzidir. Qog'oz pullar boylik vazifasini o'tay olmaydi va ularning ortiqchaligi I.ga sabab bo'ladi. Shu sababli pul jamg'armalarini ko'chmas mulk yoki qimmatbaho buyumlar sotib olish yo'li bilan saqlash ishonchliroq hisoblanadi. G'arb ilmiy manbalarida yillik I. sur'ati 10% gacha bo'lganda qisman (mo'tadil) hisoblanib, ijtimoiy mushkullik deb qaralmaydi. Ak-sincha, u muayyan darajada iqtisodiyotni jadallashtirishga turtki beradi. Pekin I. sur'ati 10% dan oshganda juda xavfli tus oladi. Ayniqsa giperinflyasiyasa narxlar bir necha foiz emas, balki bir necha marta oshib iqtisodiyotni izdan chiqaradi. I.ning ochiq va yashirin (bostirma) turlari mavjud. Ochiq I. erkin narxlar amal qiluvchi bozorlarda kuzatiladi. Narxlarning notekis o'sishi bozor mexanizmini buzadi, lekin uni yo'qotmaydi. Iqtisodiyot bozor o'zgarishlariga o'z aks ta'sirini ko'rsataveradi va turli bozorlar muvozanat yo'nalishiga o'zi moslashadi.

Yashirin I. sharoitida vaziyat boshqacha bo'lib, davlat narxlar oshishidan xavotirga tushib, bunga qarshi kurashga kiradi, daromad va narxlar ustidan, ularni muayyan darajada muzlatgan holda yalpi ma'muriy nazorat o'rngaadi. Yashirin I. bozorning o'z-o'zini tartibga solish mexanizmini izdan chiqaradi. Muzlatilgan narxlar ishlab chiqarish xa-rajatlari yuqori bo'lgan sohalarga kapital yotqizishdan manfaatdorlikni yo'qqa chiqaradi. Shu sababli bu sohadan kapitalning qrdiqlari ham chi-qib ketishga harakat qiladi va tovarlar taqchilligiga olib keladi. Bozor iqtisodiyotida taqchillik narxlarning ko'tarilishiga sabab bo'ladi. Ochiq I.ning quyidagi shakllari mavjud: talab I.si, harajatlar I.si, tuzilmaviy I. va boshqa I.ning bu turlari bozorning o'zi tomonidan yaratiladi. Bozor sharoitida ochiq, muvozanatlashgan I. yuz beradi, bunda narxlar pariteta (nisbati) o'zgarmaydi, harajatlar ortishiga qarab narxning o'sishi firmalarning foyda olib ishla-shini ta'minlaydi. I. pul qadrini tushirib, uning iqtisodiy ahamiyatiga putur yetkazadi, shu bois davlat harajatlarini qisqartirish, soliqlarni oshirish, pul emissiyasini cheklash, monopol narxlarni tartiblash, narx erkinligini ta'minlash, ortiqcha pullarni bankka, qimmatli qog'ozlar bozoriga tortish va boshqalarlardan iborat I.ga qarshi siyosat yuritiladi. I. jahondagi barcha mamlakatlarga xos va xalqaro tus olgan. Mac, I. sur'atlari 1980-yilda AQShda 10,8, Yaponiyada 7,1, Germaniyada 5,8, Fransiyada 13,3, Buyuk Britaniyada 16,3% ni, 1990-yilda tegishlicha 5,0; 2,4; 2,5; 3; 4,7% ni tashkil qildi. I. shiddati narxlarning o'sish indeksiga qarab aniqlanadi. Bu indeks O'zbekistonda 300 ga yaqin tovarlar (2000-yil) narxi o'zgarishlarini hisobga oladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitlarida mehnatning miqdori va sifatiga qarab mehnatga haq to'lashning, asosan, vaqtbay va ishbay tizimlari qo'llaniladi. Vaqtbay ish haqi shaklida xodim oladigan ish haqi miqdori ishlagan vaqt bilan bog'liq bo'ladi, ya'ni ish haqi miqdori mehnat unumdorligi va intensivlik darajasiga bog'liq emas. Ishbay ish haqi xodimning ma'lum vaqt mobaynida tayyorlangan mahsuloti miqdori bilan o'lchanadi. Ishbay ish haqining ko'rinishlaridan biri — akkord ish

haqi. Bunda jamoa yoki ayrim xodimga ish hajmi oldindan belgilab beriladi, umumiy haq summasi kelishib olinadi. Ish butunlay yakunlanganidan keyin ish haqi oxirigacha to'lanadi. Ish haqining bunday shaklidan ko'pincha qurilishda foydalaniladi. Bulardan tashqari aksar mamlakatlarda ish haqidan tashqari mehnatda erishgan yutuqlari uchun mukofotlash ham mavjud. Bular vaqtbay mukofot, ishbay mukofot tizimlari hamda korxonada olingan foyda hisobidan ajratiladigan moddiy rag'batlantirish fondidan mukofotlash tizimidir. Ish haqi miqdorining eng qadimiy vaqt birligi kundir. Soat ixtiro qilinishi bilan ishni bo'limlarga bo'lish keng tarqaldi. Ish miqdorini o'lchashda ish soati eng ko'p qo'llanila boshlandi.[2][3] Qadimgi Misr O'rta Qirolligi, Qadimgi Yunoniston[4] va Qadimgi Rim ish haqi to'langan eng qadimiy davlatlarga kiradi. Ish haqi — mehnatga pul shaklida to'lanadigan haq; qiymatning o'zgargan shakli, ish kuchi (taqdim etilgan mehnat xizmati)ning bahosi.[1] Ish kuchi qiymati va narxi bevosita ish haqida ifodalanadi. Ish haqi darajasi mehnat bozorida kelishiladi. Xodim mehnat bozorida mehnatni emas, o'z ish kuchini sotadi. Ish haqi mehnatning pul shaklidagi bahosi bo'lib, uni ishga yollovchilar (korxonalar, muassasa, tadbirkor) mehnat qiluvchilarga ma'lum vaqt mobaynida ma'lum miqdordagi va muayyan sifatli ishni bajarganliklari uchun to'laydilar. Yollanma xodim uchun ish haqi asosiy daromadi manbai hisoblanadi. Ish haqi — yollanma xodim daromadining asosiy manbai, unga tegishli ish qobiliyatiga bo'lgan mulkchilik huquqini iqtisodiy jihatdan ro'yobga chiqarish shakli. Shu bilan birga ish beruvchi uchun yollanma xodimlar mehnatiga to'lanadigan haq ishlab chiqarish harajatlarining unsurlaridan biri. Ish beruvchi mehnat resurslaridan ishlab chiqarish omillaridan biri sifatida foydalanish uchun uni xarid

Kichik va o'rta biznes - mustaqil mulk egaligiga, xo'jalik faoliyatini mustaqil tashkil etishga asoslangan va o'z tarmog'ida hukmron mavqe tutmaydigan biznes. Turli mamlakatlarda K. va o'b. sub'yektlari maqomini belgilab beruvchi mezonlar sifatida korxonada band bo'lgan ishlovchilar soni, korxonaning tovar aylanmasi, aktivlar, kapitallar, foyda miqdori va boshqa ko'rsatkichlardan foydalaniladi. Mas, AQShda ko'pgina tarmoqlarda ishlovchilar soni 100 kishidan, ishlov beruvchi sanoatda 500 kishidan kam xodimlar ishlaydigan korxonalar kichik biznesga kiritiladi.

O'zbekiston K. va o'b. sub'yektlarini aniqlashda korxonada ishlovchilar soni mezon qilib olingan. Kichik biznesga, mulk shaklidan qat'i nazar, yiliga sanoat korxonalarida o'rta hisobda 10 nafargacha, savdo, xizmat ko'rsatish va boshqa ishlab chiqarishdan tashqari sohalarda 5 nafargacha ish bilan band xodimga ega bo'lgan mikrofirmalar; ishlab chiqarish sohasida yiliga o'rta hisobda 40 nafargacha, qurilish, qishloq xo'jaligi va boshqa ishlab chiqarish sohasida 20 nafargacha, ilm-fan, ilmiy xizmat ko'rsatish, chakana savdo hamda boshqa ishlab chiqarishdan tashqari sohalarda 10 nafargacha ish bilan band xodimga ega bo'lgan kichik korxonalar kiradi. Kichik korxonalar uchun yiliga belgilangandan ortiq, lekin ishlab chiqarish sohasida 100 nafardan, qurilishda 50 nafardan, qishloq xo'jaligi va boshqa ishlab chiqarish sohasida, ulgurji savdoda 30 nafardan, chakana savdo, xizmat ko'rsatish hamda boshqa noishlab chiqarish sox.alarda 20 nafardan oshmaydigan ish bilan band xodimga ega bo'lgan korxonalar o'rta biznes korxonalarini hisoblanadi.

K. va o'z. b. rivojlangan va rivojlanayotgan har qanday mamlakat iqtisodiyotida muhim ahamiyatga ega. K. va o'z. b. sharoitga tez moslashuvchanlik bilan ajralib turadi, uning faoliyatini yo'lga qo'yish katta miqdordagi dastlabki kapitalni talab qilmaydi. K. va o'z. b. yirik biznes uchun qulay bo'lmagan sohalarida avj oladi. K. va o'z. b. kichik bozorlarda faoliyat olib borish, mahalliy resurslardan foydalanish, ishsizlik muammosini xal qilish, mehnat unumdorligini oshirish, o'rta mulkdorlar qatlamini shakllantirish va ichki bozorni iste'mol tovarlari bilan to'ldirishda muayyan afzalliklarga ega. Kichik korxonalar odamlarda sohibkorlik, tadbirkorlik, mulkka egalik qobiliyatlarini ro'yobga chiqarish, ularda ishbilarmonlik ko'nikmalarini hosil qilish va rivojlantirish vositasi hisoblanadi. O'zbekistonda K. va o'z. b. tarixiy ildizga ega. Bu yerda azaldan hunarmandchilik rivojlangan. To'qimachilik, kosibchilik, kulolchilik, amaliy san'at, ganchkorlik, temirchilik, o'ymakorlik bilan shug'ulla-niladigan kichik-kichik ustaxona va do'konlar ko'p bo'lgan. O'zbekistonda mavjud K. va o'z. b. korxonalar sanoat, qurilish, savdo, maishiy, tibbiy, transport xizmatlari ko'rsatish, ilmiy, texnikaviy axborot xizmati sohalarida, qishloq xo'jaligida faoliyat ko'rsatadi. K. va o'z. b. ni qo'llabquvvatlashga xizmat qiladigan sug'urta kompaniyalari, injiniring va lizing xizmati tashkilotlari mavjud. K. va o'z. b. korxonalariga ko'maklashadigan Respublika va hududiy miqyosda faoliyat olib boruvchi Tovar ishlab chiqaruvchilar va tadbirkorlar palatasi, "Biznes-fond", "Madad" sug'urta kompaniyasi tashkil qilingan. K. va o'rta korxonalar uchun soliq imtiyozlari, imtiyozli kredit ajratish tizimi ham mavjud.

K. va o'z. b. korxonalar fukarolar, oila a'zolari va boshqa hamkorlikda mehnat yurituvchi shaxslar, davlat, idora, jamoa, qo'shma korxonalar, jamoat tashkilotlari, shirkat, hissadorlik jamiyatlari, xo'jalik uyushmalari, o'rtoqlik tashkilotlari, yuridik tashkilot maqomiga ega bo'lgan korxonalar va tashkilotlar tomonidan tashkil etilishi mumkin. O'zbekistonda ro'yxatga olingan K. va o'z. b. korxonalarining soni 202 mingtaga yetdi. Ularning 57,7% ishlab chiqarish, 42,3% noishlab chiqarish tarmoqlariga to'g'ri keladi. Ular ishlab chiqargan mahsulot mamlakat YAIMning 24,5% ni tashkil etdi, jami ish bilan band aholining 53% shu biznes sohasida ishladi (2002). O'zbekistonda K. va o'z. b. iqtisodiy va huquqiy munosabatlari O'zbekiston Respublikasining "Tadbirkorlik va tadbirkorlik faoliyatining kafolatlari to'g'risida" (1999-yil 14-aprel) va "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida" (2000-yil 25-may) qonunlari bilan tartibga solinadi. Ma'lumki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik jahon mamlakatlari tajribasida o'zining yuksak natija va muvaffaqiyatlari bilan mustahkam o'rin egallagan bo'lib, aksariyat xalqlarda uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 60-70 foizni tashkil etadi. Kichik biznesning rivojlanishi iqtisodiyotdagi jo'shqinlik va samarali raqobat muhiti uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish, iste'mol sektorini kengaytirish orqali talabni rag'batlantirish, iste'mol bozorini tovar va xizmatlar bilan to'ldirish, atrof-muhitni muhofaza qilish, byudjet tushumlarini kengaytirishga xizmat qiladi. SHunga ko'ra, ko'plab rivojlangan davlatlar kichik biznes faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlashga intiladi.

O'zbekiston mustaqilligining o'tgan yillariga nazar tashlasak, yurtimizda kichik va o'rta biznes yo'nalishi qo'shni davlatlarga nisabatan sekin rivojlangani, ko'rsatkichlar sezilar-sezilmas darajada bo'lgani, katta-katta bizneslar ma'lum insonlar qo'lida bo'lib, aholining asosiy qatlami ularning qo'l ostida ishlaganini ko'ramiz. Oddiy odamlar uchun tadbirkorlik uddalab bo'lmas mashaqqatdek ko'rinardi. Yuqori boj to'lovlari, er olish, korxonalar ochishdagi qator to'siqlar, bironing cho'ntagiga pul qistirmasang, bitmaydigan ishlar, bir amallab biznesni yo'lga qo'yib olganda ham, har kuni eshik qoqadigan soliqchilarga dosh berish oson emasdi. SHuning uchunmi, odamlar tadbirkorlik qilishdan ko'ra, "och qornim, ting qulog'im" qabilida ish tutishni afzal bilgan.

Xulosa: Bizga hayotimizda va davlatimizda sodir bo'layotgan bazi bir narsalar haddan ziyod sezilmaydi. Keling shuni oddiygina solishtiramiz. Oddiygina o'tgan yilgi narxlar bilan bu yilgi narxlarni solishtiring yoki oylik maoshlarni. Barchamizda solishtirganimizdan sōng qiziqarli savollar ko'payishi aniq. Masalan, oylik oshgani uchun narxlar oshadimi yoki narxlar oshgani uchun oylikmi, ikkalasini farqi yo'qday tuyulishi mumkin. Yo'q albatta farqi bor lekin bu ikki jarayon ham jamiyatimizda sodir bo'ladi. Bazida narxlar oshib ketganligi sababli davlat oylik ish haqlarini oshirishga majbur bo'ladi, Bazida esa oylik oshgani uchun narxlar oshadi, Bu ikki vaziyatda ham natija inflatsiyaga olib keladi. Buni oldini olish bazida imkonsizdek tuyuladi, Lekin ko'ngilni tushurmaslik kerak. Ilojsiz ishning o'zi yo'qdir. Avvalambor biz O'zbekistonda kichik biznesni faoliyatini yanada kengaytirishimiz kerak. Xalqni xōjalik ehtiyojlarini kunlik turmushini o'tkazadigan biznes bu kichik biznesku, shuning uchun ham unga oylaganimizdanda ko'ra ko'proq e'tibor berishimiz kerak. Hatto Turkiya davlati ham yaqinda kuchli iqtisodiy vaziyat umuman olganda muammo desak ham bo'ladi, nima bo'lganda ham undan chiqib ketishni uddasidan chiqishdi. Turkiyada ham eng katta e'tiborni kichik bizneslarni rivojlanishga qaratishadi. Bizda ham kichik biznesga keng ko'lamlı imkoniyatlar yaratilgan ammo ularni o'rnini bosib ketadigan bazi bir cheklovlar ham afsuski borligi haqiqat.

Iqtisod siyosatdan ustun. Iqtisod inson paydo bo'lganida yaralgan. Iqtisod- (greklarda) uy xōjaligini yuritish qonunlari, (arab leksikonida) tejamkorlik degan ma'nolarni anglatadi. Shunday ekan iqtisodning umri yoki davlat iqtisodining umri shu davlatning umriga bog'liqdir. Prezidentimizning iqtisod sohasida juda ko'plab keltirgan fikr va mulohazalari mavjud. Hattoki prezidentimiz qatnashgan yoki o'tkazgan har bir majlislarida iqtisod sohasiga albatta bir to'xtaydilar. Hattoki kuni keva bo'lib o'tgan majlisda ham mamlakatimiz iqtisodi haqida so'z va fikrlar yuritilindi. Eng quvonarlisi shundaki bu yilgi O'zbekiston YAIMi 80 mlrd. dollar bo'libdi. O'zbekiston shu kunga yetib kelguncha ozmuncha qiyinchilik ko'rdi.

Bu sonlarning ostida o'zbek xalqining halol mehnati yotibdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Bajenova V.S., Ioxin V.Ya. Ekonomicheskaya teoriya. Mikroekonomika – 1, 2. – M.: Izdatelsko-torgovaya korporatsiya «Dashkov i K°», 2006. – 934 s.
2. Kudina M.V. Osnovy ekonomiki. – M.: FORUM: INFA-M, 2006. – 352 s.
3. Kulikov L.M. Ekonomicheskaya teoriya. M.: TK Velbi, Izd-vo Prospekt, 2006. 432 s.
4. Shodmonov Sh.Sh., G`afurov U.V. Iqtisodiyot nazariyasi. T.: «Fan va texnologiya». 2005. 186 b.
5. Razzoqov A., Toshmatov Sh., O`rmonov N. Iqtisodiy ta`limotlar tarixi. T.: «Moliya». 2002. 174 b.
6. Borisov Ye.F. Ekonomicheskaya teoriya: 2-ye izd., pererab. i dop. M.: TK Velbi, Izd-vo Prospekt, 2005. 230 s.
7. Ioxin V.Ya. Ekonomicheskaya teoriya. M.: ekonomist, 2005. 356 s.
8. Kulikov L.M. Ekonomicheskaya teoriya. M.: TK Vebli, Izd-vo Prospekt, 2005. 421 s.
9. Xodiev B.Yu., Shodmonov Sh.Sh. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. - T.: Barkamol fayz media, 2017. - 783 bet.
10. O`lmasov A., Vaxobov A.V. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. - T.: «Iqtisod-moliya», 2014. 480 bet.
11. Shodmonov Sh.Sh., G`ofurov U.V. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. - T.: «Iqtisod-moliya», 2010.-728 bet.
12. Shodmonov Sh.Sh., Rahmatov M. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. - T.: «Iqtisod-moliya», 2010.-728 bet. milliycha.uz
13. imlo.uz
14. uz.wikipedia.uz